



NEFT-GAZ, YOQILG'I ENERGETIKA SANOATI SOHASIDA SOLIQ NAZORATINI SAMARALI TASHKIL ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Abdullaev Shuxrat Sultanbaevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0007-5773-5162

abdullayev.shuxrat.80@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada qazib olingan tabiiy gaz, neft va gaz kondensatini qayta ishlashni amalga oshirgan hollarda soliq bazasi ushbu foydali qazilmalardan olingan mahsulotlarni realizatsiya qilish hamda kengaytirish, neft-gaz, yoqilg'i energetika sanoati sohasidagi yirik soliq to'lovchilarda soliq nazoratini samarali tashkil etish masalalari hamda soliqqa tortish muammosini bartaraf etish bo'yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: daromad manbai, soliq ma'muriyatchiligi, soliq hisoboti, an'anaviy reja, xalqaro soliqqa tortish, tabiiy boyliklar, soliqqa tortish, suv resurslari, yer resurslari, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq, undirish tartibi, nedra, mulkiy soliqlar.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ЭФФЕКТИВНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ НАЛОГОВОГО КОНТРОЛЯ В СФЕРЕ НЕФТЕГАЗОВОЙ, ТОПЛИВНОЙ ЭНЕРГЕТИКИ

Абдуллаев Шухрат Султанбаевич

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. При переработке добываемого природного газа, нефти и газового конденсата реализуется и расширяется налоговая база, эффективная организация налогового контроля крупных налогоплательщиков в сфере нефтегазовой, топливно-энергетической отрасли и научные предложения. разработаны рекомендации по решению проблемы налогообложения.

Ключевые слова: источник дохода, налоговое администрирование, налоговая отчетность, традиционный план, международное налогообложение, природные ресурсы, налогообложение, водные ресурсы, земельные ресурсы, налог на недропользование, порядок взимания, недра, налоги на имущество.

IMPROVING THE EFFECTIVE ORGANIZATION OF TAX CONTROL IN THE FIELD OF OIL AND GAS, THE FUEL ENERGY INDUSTRY

Abdullaev Shukhrat Sultanbaevich

Tashkent State University of Economics

Abstract. In the case of processing of extracted natural gas, oil, and gas condensate, the tax base is realized and expanded, effective organization of tax control of large taxpayers in the field of oil, gas, fuel, and energy industry. Issues, scientific proposals, and recommendations for solving the problem of taxation have been developed.

Keywords: source of income, tax administration, tax reporting, traditional plan, international taxation, natural resources, taxation, water resources, land resources, subsoil use tax, collection procedure, Nedra, property taxes.

Kirish.

“Jahon amaliyotida neft sanoatida royalti o‘rtacha 0 dan 50% gacha tebranadi”. Royalti nomi bilan yuritiluvchi tog‘-kon sanoati soliqlari Kanada, Xitoy, AQSh va Hindistonda keng tarqalgan bo‘lib, AQShning turli shtatlarida qimmatbaho metallar uchun tabiiy resurslarni qazib olish uchun soliq va litsenziyalangan qazib olish solig‘i olinadi. Kanadada yer qa‘ridan foydalanuvchining yalpi daromadining 2 foizi yoki sof foydasining 15 foizi miqdorida royalti to‘lash odatiy hol bo‘lib bormoqda. Yer osti boyliklarini o‘zlashtirishni salohiyatli investorlarga taqdim etish orqali qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish maqsadida soliq stavkalarini auksion savdolari vositasida kim oshdi usulida belgilash amaliyotidan ham foydalanilmoqda. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda foydali qazilma konlarini sanoat usulida o‘zlashtirish, geologiya-qidiruv ishlarini rag‘batlantirish orqali yer qa‘ridan foydalanuvchilarga qulay ishbilarmonlik muhitini yaratishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Adabiyotlar sharhi.

Neft-gaz, yoqilg‘i energetika sanoati sohasidagi yirik soliq to‘lovchilarda soliq nazoratini samarali tashkil etish masalalarini takomillashtirish mavzusiga oid qisqacha adabiyotlar sharhini keltiramiz.

Rossiyalik olim Ilicheva (2017) tabiiy boyliklarni soliqqa tortish mexanizmlarini tadqiqini yirik soliq to‘lovchilar tomonidan neft va gaz kompaniyalari tomonidan to‘lanadigan foydali qazilmalarni qazib olish solig‘i misolida olib borgan holda bu boradagi muhim tadqiqot natijalarini asoslab beradi. Xususan, Ilicheva (2017) “neft va gaz kompaniyalari tomonidan to‘lanadigan foydali qazilmalarni qazib olish solig‘ini undirishni optimallashtirish va yanada malakali boshqarish, xususan, davlat byudjet i va umuman uning iqtisodiyotini shakllantirish uchun juda muhimdir”.

Bloshenko (2019) texnogen kon tushunchasi va uning soliqqa tortish mexanizmiga baho berib, “texnogen kon – bu, foydali qazilmalarni qazib olishda yer qa‘ridan foydalanish to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq, mineral xomashyoni qazib olish va kompleks qayta ishlash jarayonida yo‘qotishlar sifatida olinadigan, alohida litsenziyalanishi kerak bo‘lgan ikkilamchi foydali qazilmalardir”.

Mustafa (2020) bu boradagi ilmiy ishlarida “Rossiya konlarida joylashgan neft narxining o‘zgaruvchanligi asosida soliq yukini prognozlash metodologiyasini ishlab chiqqan, neft narxining o‘zgaruvchanligi sharoitida o‘zlashtirish qiyin bo‘lgan uglevodorodlar xom-ashyosini qazib olish sohasida soliqqa tortishning amaldagi tizimni isloh qilish zarurligini asoslagan, o‘zlashtirish qiyin bo‘lgan konlarda uglevodorodlar xom-ashyosi ishlab chiqarishga soliq solish tizimi sohasidagi toifaviy apparatni kengaytirishni taklif qilgan.

Tumanova (2017) o‘zining “Yer qa‘ridan foydalanishning huquqiy asoslari” nomli o‘quv qo‘llanmasida tabiiy boyliklar atamasini ham geologik, ham huquqiy tushuncha sifatida tushuntiradi. Olimaning fikricha, “tabiiy boylik bu nafaqat uning tarkibidagi foydali qazilmalar bo‘lgan geometrik yer osti makonini, balki yer qa‘rining boshqa barcha foydali xususiyatlarini, shu jumladan energiya resurslarini, yer osti inshootlarini, yer qa‘ri obyektlarining sanitariya-rekreatsion ta‘sirini va yer qa‘ri haqidagi geologik ma‘lumotlarni ham anglatadi”.

Fedorov (2010) tadqiqotlari doirasida “ma‘muriy yukni kamaytiradigan va yirik soliq to‘lovchilarning investitsiya faolligini rag‘batlantiradigan soliq ma‘muriyatchiligini takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar taklif etgan, amaldagi soliq imtiyozlarini sezilarli darajada kengaytiradigan va to‘ldiradigan hamda o‘z investitsiya manbalarini ko‘paytiradigan yirik soliq to‘lovchilarning investitsiya faoliyatini soliq orqali rag‘batlantirish usullari va uslublarini ishlab chiqqan, ularning samaradorligini baholagan”.

Kamalnev (2009) yirik soliq to‘lovchilarning faoliyatini soliqqa tortish amaliyotini bevosita gaz tarmog‘i korxonalarini misolida tahlil qilgan bo‘lib, yirik soliq to‘lovchilarning soliq ma‘muriyatchiligi natijalariga baho bergan, mintaqalararo soliq xizmati organlarining nazorat faoliyati ham miqdoriy ham sifat ko‘rsatkichlari asosida tahlil qilgan”.

Bobilev va boshqalar (2015) o'z tadqiqotlarida neft qazib olish sohasidagi soliq munosabatlari, jumladan, soliq yukini qayta taqsimlash masalalari bo'yicha izlanish natijalarini bayon qilishgan. Bularning tadqiqotlarida neft eksportiga soliq yukini pasaytirish orqali yukni ishlab chiqarishga o'tkazish maqsadga muvofiqligi keltirilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Neft va gaz xomashyosi strategik turdagi foydali qazilmalar toifasiga kirib, shaxs, jamiyat va davlat manfaatlari uchun o'ta zaruriy bo'lgan funksiyani bajaradi. Ushbu turdagi qazilmalarni ayrim shartlar asosida sotishdan byudjet daromadlari shakllantirilsa, bir qismi milliy iqtisodiyotni drayveri hisoblangan korxonalar ehtiyoji uchun sarflanadi. Shaxs manfaatlariga xizmat qilish pog'onasi uchun ajratilgan yoqilg'i energetika doimo davlat tomonidan subsidiya ajratish va tannarxdan past narxlarda sotish bilan ushlab turiladi.

Barchamizga sir emaski bugungi kunda neft gaz quduqlarining asosiy qismi davlat ulushiga ega korxonalar va mahsulot taqsimotiga oid bitim bo'yicha faoliyat yuritayotgan kompaniyalar ixtiyorida bo'lib, davlat byudjet ining daromad qismi shakllanishida tarmoq korxonalari yetakchi o'rinni egallaydi. Ma'lumot o'rnida aytadigan bo'lsak, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha bir yilda 12 trln.so'mdan ortiq mablag' tushsa, ushbu tarmoq korxonalari mazkur tushumning 25-30 foizini ta'minlaydi. Shu o'rinda neft gaz tarmog'ining tarixiga nazar soladigan bo'lsak, qariyb bir asrlik tajribaga ega bo'lgan mamlakatimizda ushbu sohada sanoatlashtirish ishlari davom etmoqda.

O'rganishlar shuni ko'rsatmoqdaki, neftni sanoatlashgan tarzda qazib olishning dastlabki bosqichlari mamlakatimizda 1885 yildan boshlangan bo'lib, Farg'onada joylashgan Chimyon qishlog'i yaqinidagi ikki burg' qudug'idan neft qazib olinib boshlangan. Shundan so'ng, 1900-yilga kelib, ushbu mintaqada jiddiy geologiya qidiruv ishlari olib borilgan va 1904-yilga kelib 270 metrdan ortiq chuqurlikdan neft favvorasi otilib chiqa boshlagan¹.

Bir oz muddatdan so'ng ya'ni 1906-yilga kelib Farg'ona viloyatida neft haydash zavodi qurilib, u davriy harakat qiluvchi bitta ikki kubali qurilmadan iborat bo'lgan. Neft konidan qazilma boylik ot-ulov transportida tashilib, neftning sifati esa termometr va areometr yordamida aniqlagan. Qayta ishlash natijasida olinadigan asosiy mahsulotlar chiroq kerosini va isitish mazuti sifatida foydalanilib, keraksiz bo'lgan benzin zavod hududi tashqarisidagi chuqurlarda yoqib yo'q qilingan. 1940 yilga kelib zavod o'z laboratoriyasiga ega bo'lgan va texnologik jarayon sifat jihatidan ijobiy tomoniga o'zgarib, yillik ishlab chiqarish quvvati 176 ming tonnaga yetgan. Shundan so'ng, 1972-yilga kelib, Qashqadaryo viloyatida jahondagi eng yirik qurilmalardan biri bo'lgan Muborak gazni qayta ishlash zavodi, 1980 yilda esa Sho'rtan zavod ishga tushirilgan.

Mustaqillik yillarida tarmoqqa xorijiy investorlarning qiziqishlari ortib, 2004-yildan Rossiyaning Lukoyl neft kompaniyasi neft gaz tarmog'i bozoriga kirib kela boshlagan hamda "O'zbekneftgaz" Milliy xolding kompaniyasidan iborat investorlar konsorsiumi imzolangan. Mazkur shartnoma doirasida Qandim konlari guruhi uchastkasi, Xauzak, Shodi uchastkalari va Qo'ng'irot uchastkalari bo'yicha 35-yil muddatga (mega-loyiha) mahsulotni taqsimlash Kelishuvi (SRP) imzolandi².

Shuningdek, 2002-yil tomonlar o'rtasida hamkorlikni faollashtirish va kengaytirish maqsadida "Gazprom" OAJ hamda "O'zbekneftgaz" MXK gaz sohasida strategik hamkorlik to'g'risida Kelishuv imzolandi. Shaxpaxta konida qoldiq zaxiralarni konservatsiyadan chiqarish va o'zlashtirish bo'yicha pilot loyihasini respublikada amalga oshirish O'zbekiston neft-gaz sektorida "Gazprom"ni keyingi faoliyati rivojlanishiga imkon berdi. 2014-yil 14-aprelda "Shaxpaxta konini ishlash" loyihasi bo'yicha "O'zbekneftgaz" MXK bilan "Zarubejneftegaz" YoAJ, "Gazprom" OAJ va "Gas Project Development Central Atsia AG" (Shveysariya) tarkibdan iborat

¹ <https://www.ung.uz/about/history>

² <https://www.ung.uz/about/history>

konsorsium o'rtasida mahsulotni taqsimlash Kelishuvi (SRP) imzolandi³.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Orol Dengizining O'zbekiston qismini geologik jihatdan o'rganish va keyinchalik yangi ochiladigan uglevodorod konlarini mahsulotni taqsimlash to'g'risidagi bitim shartlari asosida qazish to'g'risida"gi 2006-yil 30-avgustdagi PQ-457-son qarori⁴ga muvofiq O'zbekiston Respublikasi va CNPC (XXR), KNOG (Koreya), Lukoil Overseas Holding Ltd (RF), Petronas Carigali Overseas SDN BHD (Malayziya), "O'zbekneftgaz" MXK tarkibidan iborat investorlar Konsorsiumi o'rtasida Orol Dengizining O'zbekiston qismi bo'yicha mahsulotni taqsimlash to'g'risidagi Kelishuv imzolandi va u 2007-yil 30-yanvardan kuchga kirdi.

Mazkur shartnomalarning imzolanishi bilan mamlakatimizda konlarni aniqlash, qidirish va foydali qazilmalarni kavlab olishga investitsiyalar kiritilganda mahsulot taqsimotiga oid bitimlarni tuzish, ijro etish va bekor qilish jarayoni yangi bosqichga ko'tarildi. Mazkur bitimlar asosida dastlab "orqaga qaytish" ("netback") prinsipiga tayangan holda soliq bazasini aniqlash tizimi belgilanib, qayta ishlash natijasida olingan yakuniy mahsulotlar realizatsiyasidan ularni ishlab chiqarish uchun sarflangan xarajatlar chegirilishi joriy qilindi. Shundan so'ng mahsulot taqsimotiga oid bitim doirasida qazib olingan neft va/yoki gaz kondensati keyinchalik qayta ishlangan mahsulot sotilishi bilan xom ashyo berish asosida qayta ishlansa, soliq solinadigan bazani aniqlash uchun "orqaga qaytish" ("netback") prinsipiga asoslanib aniqlanadigan neft va/yoki gaz kondensatini yetkazib berish punktidagi hisoblangan narx qo'llaniladigan bo'ldi. O'tgan yillar davomida kuzatilgan energiya tanqisligi bo'yicha hukumat tomonidan neft gaz tarmog'i korxonalariga uglevodorod konlarini samarali boshqarish bo'yicha bir qator talablar qo'yildi.

Xususan "O'zbekneftgaz" aksiyadorlik jamiyati tasarrufidagi uglevodorod konlarini samarali va maqsadli ishlatish, ulardan tabiiy gaz va suyuq uglevodorod xomashyosi qazib chiqarishni oshirish hamda mavjud quduqlarning bir maromda ishlatilishini ta'minlash bo'yicha ishlar boshlab yuborildi. Ushbu tadbirlar doirasida dunyoning yetakchi neft servis kompaniyasi "Schlumberger" bilan birgalikda jahon tajribasi asosida 2023-yil uchun umumiy qiymati 5,7 trln.so'mga teng bo'lgan 744 ta geologik-texnik chora-tadbirni o'z ichiga olgan "Makro invest dastur" ishlab chiqildi⁵. Unga asosan jami 111 ta yangi quduqni burg'ilash, 608 ta quduqda kapital ta'mir hamda intensivatsiya ishlari va 25 ta texnologik obyektini (siquv kompressor stansiyalari, gazni dastlabki tayyorlash qurilmalari, kichik kompressor qurilmalari, gaz yetkazib berish quvurlari) qurib ishga tushirish rejalashtirilgan. Qazib chiqarish chora-tadbirlarini amalga oshirishda geologik-texnologik risklarni kamaytirish maqsadida 2023-yilda yangi ochiladigan barcha konlarning geologik modeli, 28 ta konning gidrodinamik modeli va 40 ta konning tarmoq modellari, 8 ta konning integral modellarini tuzish ishlari hamda 2020-2022-yillarda ishlab chiqilgan 19 ta konning geologik modeli, 65 ta konning gidrodinamik modeli va 40 ta tarmoq modelini yangi burg'ilangan quduqlar ma'lumotlari asosida yangilash ishlari amalga oshiriladi⁶.

Mutaxassislarning dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, 2023-yilda tabiiy gaz qazib olish hajmini 56,3 mlrd kub metrga yetkazib (2022-yilda 51,7 mlrd. kub metr), o'tgan yilga nisbatan 4,6 mlrd kub metrga oshirish imkoniyati bor⁷. So'ngi yillarda chet el investorlarini keng jalb qilish orqali foydali qazilma konlarini sanoat usulida o'zlashtirish, zamonaviy texnologiyalar yordamida geologiya-qidiruv ishlarini jadallashtirish va rag'batlantirish hamda yer qa'ridan foydalanuvchilarga soliq solish tartibini xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida takomillashtirish borasida bir qator ishlar amalga oshirilmogda.

Xususan, 2022-yil 1-yanvardan boshlab likvidligi yuqori bo'lgan tabiiy gazlar, neftlar va

³ <https://www.ung.uz/about/history>

⁴ lex.uz "O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi"

⁵ <https://kun.uz/news/2023/01/23/2023-yilda-gaz-qazib-olishni-9-foizga-oshirish-imkoniyati-borligi-aytildi>

⁶ <https://kun.uz/news/2023/01/25/ozbekneftgaz-aj-tomonidan-2023-yilda-744-ta-geologik-texnik-chora-tadbirlar-amalga-oshirish-hamda-buning-evaziga-328-mlrd-kub-metr-tabiiy-gaz>

⁷ <https://kun.uz/news/2023/01/23/2023-yilda-gaz-qazib-olishni-9-foizga-oshirish-imkoniyati-borligi-aytildi>

kondensatlar shuningdek metallar bo'yicha geologik o'rganish yoki tayyor holdagi yer qa'ri uchastkalari bo'yicha qazish ishlari huquqini qo'lga kiritish uchun o'tkaziladigan tanlov savdolari bo'yicha maxsus tartibi belgilana boshlandi. Ushbu tartib doirasida geologiya-qidiruv va (yoki) izlanish ishlari o'tkazish uchun ajratilgan yer uchastkalari tanlov g'olibi aniqlangunga qadar yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i solish obyekti sifatida qaralmaydigan bo'ldi. Shuningdek, ajratilgan maydon va foydali qazilma turlariga qarab, geologik o'rganishlar va (yoki) izlanish ishlari uchun yer qa'ridan foydalanganlik uchun yillik litsenziya to'lovi joriy qilindi. Fikrimizcha islohotlar davomida yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning bazaviy stavkalarini saqlab qolgan holda likvidliligi yuqori bo'lgan murakkab texnologiyalar asosida qazib olinadigan foydali qazilmalar bo'yicha soliq stavkalarini qayta ko'rib chiqish maqsadga muvofiq sanaladi. Bugungi kunga qadar amaliyotda tarmoq korxonalarining barchasiga tabiiy gaz bo'yicha soliq stavkasi 30 foiz, neft va gaz kondensati bo'yicha 20 foiz, utilizatsiya qilingan tabiiy gaz, realizatsiya qilingan hajmi bo'yicha 9 foizdan iborat bo'lgan stavka qo'llanilmoqda edi. Shuningdek, foydali qazilmani qazib olish (ajratib olish) hajmi yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq solish obyekti hisoblanib, soliq bazasi yer qa'ridan foydalanuvchi tomonidan mustaqil ravishda har bir qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilmaga, shu jumladan asosiy foydali qazilmani qazib olishda birga chiqadigan foydali komponentlarga nisbatan aniqlanar edi⁸. Qolaversa soliq bazasi qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilmalar hajmining hisobot davri uchun o'rtacha olingan realizatsiya qilish bahosida hisoblab chiqilgan qiymati sifatida aniqlangan bo'lib, o'rtacha olingan realizatsiya qilish bahosi har bir qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilma bo'yicha pulda ifodalangan realizatsiya qilish hajmlarini (qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'ini chegirgan holda) ularning naturada ifodalangan realizatsiya qilish hajmiga bo'lish orqali alohida aniqlangan⁹.

Soliq bazasini aniqlashda o'rtacha olingan realizatsiya qilish bahosi qo'llanilishi, kam rentabelli konlarni o'zlashtirish, ularni xo'jalik faoliyatiga jalb etish faoliyatini rag'batlantirmagan. Shu bilan birga dunyo amaliyotida qo'llanib kelinayotgan tartiblar asosida soliq to'lovchilar tomonidan amalga oshirilgan dastlabki ishlov berish qayta ishlash va tashish xarajatlari soliq bazasidan chegirilmagan. Bu esa o'z navbatida qazib olish jarayoni murakkab bo'lgan juda katta mablag' talab etgan konlarni ishlab chiqarish faoliyatiga jalb etilmasdan qolishiga sabab bo'lgan degan fikrdamiz.

Neft-gaz bozorida faoliyat olib borayotgan xususiy kompaniyalar bilan ma'lum muddatga shartlar kelishib olingan bo'lib, ularning faoliyati mahsulot taqsimotiga oid bitimlar bo'yicha tartibga solinadi. O'rganishlardan ma'lum bo'lishicha, 2022-yil yakunlariga ko'ra, O'zbekneftgaz AJ ixtiyorida 1 311 ta faol neft gaz quduq (skvajina)lari mavjud bo'lib, ular asosan ichki bozor, ulgurji iste'molchilar, Sho'rtan gaz kimyo kompleksi, "Uzbekistan GTL" QK SP "Uz-Kor Gas Chemical" MChJ va Issiqlik elektr stansiyalariga hukumat tomonidan tasdiqlangan narx asosida sotuv amalga oshiriladi.

Xususan ichki iste'molga sotilgan ming kub gaz uchun bugungi kunda o'rtacha hisobda 343 ming so'm to'lab berilsa-da shu kabi deklaratsiya qilingan narx bo'yicha tabiiy gaz Sho'rtan gaz kimyo kompleksi, "Uzbekistan GTL" QK, SP "Uz-Kor Gas Chemical" MChJ va Issiqlik elektr stansiyalariga sotiladi. Bu qiymat tabiiy gazning haqiqiy tannarxidan ham past bo'lib, yillar davomida O'zbekneftgaz AJ, Uztransgaz AJlarning zararlari davlat subsidiyasi hisobidan qoplab berilgan.

Jumladan, 2023-yilda byudjet bo'yicha ichki bozorda tabiiy gazni ulgurji sotib olish va sotish bo'yicha ixtisoslashtirilgan kompaniya zararlarini qoplash uchun 14,2 trln.so'm xarajat yo'naltiriladi (Қонун, 2022). Yoki birinchi darajali byudjet xarajatlarining 7 foizi ushbu korxonaga sarflanadi. Ushbu zararni qoplash uchun 2022-yilda 9,2 trln.so'm mablag' birinchi darajali byudjet xarajatlaridan ajratilgan (Qonun, 2021). Neft va gaz quduqlarini geologik jihatdan o'rganish va aniqlash ularni qazib chiqarish jarayoniga jalb qilish murakkab texnologik

⁸ O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi.

⁹ O'sha manba.

jarayon hisoblanib, izlov-qidiruv quduqlarini burg'ulash va shu bilan bog'liq jarayonlar murakkabligicha qolmoqda.

Xususan, Qashqadaryo, Surxondaryo mintaqalarida chuqurligi 4000-6000 metrdan qazib olinishi lozim bo'lgan gaz konlari mavjud bo'lib, ushbu konlardan qazib olish subsidiya asosida tabiiy gaz sotayotgan davlat uchun qimmatga tushadi. Shu sababdan bugungi kunda mamlakatimizdagi mavjud konlar davlatga tegishli yoki bitim asosida xorijiy korxonalariga berilgan bo'lib, yangi konni aniqlash va qazib olishga investor jalb qilish uchun investitsion jozibadorlikni oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Tabiiy boyliklarning zaxirasi doimo qat'iy hisobda turuvchi hisobot balanslari orqali hisobi yuritilganligi bois, bugungi kunda ushbu tarmoqning hisobot balanslarini shakllantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilmagan.

Mavzu doirasida o'rganilayotgan soliq turi bo'yicha tushumlarning barqarorligida uglevodorod xom ashyosini sotishdan olingan tushumlar ham yetakchi o'rinni egallaydi. Ushbu mahsulotlar turiga neft, gaz va gaz kondensati kiritilgan bo'lib, ular strategik turdagi foydali qazilmalar toifasiga kiradi.

1-jadval

Uglevodorod xom ashyosi hisobidan yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq tushumlarini shakllanishi bo'yicha ma'lumot (Базаров, 2021) (mlrd.so'm)

Asosiy yer osti boyliklari	2015-2016-y.	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.
Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha jami tushum	2 314,2	2 504,7	4 283,8	14 692,9	16 429,6	14 940,7	14 586,6
<i>shu jumladan, ulushi (foiz)</i>							
1. Neft	Yopiq	1,4	2,1	1,0	1,2	3,0	5,4
2. Tabiiy gaz	Yopiq	22,7	15,8	10,2	11,1	11,6	18,0
3. Gaz kondensati	Yopiq	1,6	1,5	0,7	1,2	2,3	2,3

1-jadval ma'lumotlari tahliliga ko'ra, so'ngi yillarda gaz kondensati bo'yicha soliq tushumlarining barqarorligi ta'minlanib, 2017-yilga nisbatan 8,3 baravarga, neft bo'yicha 21 baravarga, tabiiy gaz bo'yicha 4,6 baravarga o'sish sur'ati qayd etilgan. Shuningdek, so'ngi yillarda tabiiy gaz va suyuq uglevodorodlar bo'yicha soliq bazasini aniqlashning yangi tartibi belgilanganligi bois, soliq tushumlarida tabiiy gaz bo'yicha 11,6 foizdan 18 foizga, neft bo'yicha 3 foizdan 5,4 foizga o'sish kuzatilgan. Buning asosiy sabablaridan biri sifatida so'ngi yillarda tabiiy gaz, neft va gaz kondensati bo'yicha soliq bazasini aniqlashning yangi tartibi joriy qilinganligi xususan ushbu mahsulotlarni qayta ishlash natijasida olingan yakuniy tayyor mahsulotlar bo'yicha soliq bazasi ushbu mahsulotlarni realizatsiya qilishdan kelib chiqib aniqlanishi belgilanganligini aytib o'tishimiz joiz.

Shuningdek, neftni qayta ishlash zavodlari orqali avtobenzinning AI-80 markasi va dizel yoqilg'isining asosiy qismi gaz kondensatidan olinayotganligi sababli kondensat bo'yicha soliq bazasida sezilarli o'zgarish kuzatilgan. Shunday bo'lsa-da tushumning asosiy qisim tabiiy gaz hisobiga to'g'ri kelib, o'rtacha hisobda yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq tushumining 10 foiziga to'g'ri keladi.

Barchamizga sir emaski bugungi kunda neft gaz quduqlarining asosiy qismi davlat ulushiga ega korxonalar (O'zbekneftgaz AJ) mahsulot taqsimotiga oid bitim bo'yicha faoliyat yuritayotgan va xorijiy kompaniyalar ixtiyorida bo'lib, davlat byudjetining daromad qismi shakllanishida tarmoq korxonalari yetakchi o'rinni egallaydi. Soliq tushumlari bo'yicha bir yilda yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha tushadigan 14 trln.so'm mablag'ning

20 foizini tarmoq korxonalari ta'minlaydi. O'rganishlardan ma'lum bo'lishicha, neft-gaz bozorida faoliyat olib borayotgan xususiy kompaniyalar bilan ma'lum muddatga shartlar kelishib olingan bo'lib, ularning faoliyati mahsulot taqsimotiga oid bitim (SRP) bo'yicha tartibga solinadi. "O'zbekneftgaz" AJ tomonidan joriy yilda umumiy qiymati 5,7 trln so'mga teng bo'lgan 744 ta geologik-texnik chora-tadbirni o'z ichiga olgan "Makro invest dastur" ishlab chiqilgan¹⁰. Unga asosan jami 111 ta yangi quduqni burg'ulash, 608 ta quduqda kapital ta'mir hamda intensivlashtirish ishlari va 25 ta texnologik obyektni (siquv kompressor stansiyalari, gazni dastlabki tayyorlash qurilmalari, kichik kompressor qurilmalari, gaz yetkazib berish quvurlari) qurib ishga tushirish rejalashtirilgan¹¹.

Xususan, Buxoro-Xiva va Farg'ona neft-gazli mintaqalarida 83 ta yangi quduqni burg'ulash, Ustyurt neft-gazli mintaqasida 28 ta yangi quduqni burg'ulash rejalashtirilgan bo'lib, ushbu quduqlar yuqori istiqbolga ega bo'lgan 4000-7000 metr chuqurliklarda joylashgan. Shuningdek, 2022-yil yakunlariga ko'ra, O'zbekneftgaz AJ ixtiyorida 1 311 ta faol neft-gaz quduqlari mavjud bo'lib, ular asosan ichki bozor, ulgurji iste'molchilar Sho'rtangazkimyokompleksi, Uzbekistan GTL zavodi, SP "Uz-Kor Gas Chemical" OOO qo'shma korxonasiga va Issiqlik elektr stansiyalariga hukumat tomonidan tasdiqlangan narx asosida sotuv amalga oshiriladi. Xususan ichki iste'molga va yuqorida sanab o'tilgan iste'molchilarga sotilgan ming kub gaz uchun o'rtacha hisobda 343 ming so'mdan to'lab beriladi.

Bu qiymat gazning haqiqiy tannarxidan ham past bo'lib, yillar davomida O'zbekneftgaz AJ, Uztransgaz AJlarning zararlari davlat subsidiyasi hisobidan qoplab berilgan. O'rganishlardan ma'lum bo'lishicha, 2023-yilda byudjet bo'yicha ichki bozorda tabiiy gazni ulgurji sotib olish va sotish bo'yicha ixtisoslashtirilgan kompaniya zararlarini qoplash uchun O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 30 dekabrda O'RQ-813-son Qonuniga asosan 14,2 trln so'm xarajat yo'naltirilgan (KOHUH, 2022) yoki birinchi darajali byudjet xarajatlarining 7 foizi ushbu korxonalar zararlarini qoplashga sarflangan.

Mutaxassislar fikriga ko'ra, neft va gaz quduqlarini geologik jihatdan o'rganish va aniqlash ularni qazib chiqarish jarayoniga jalb qilish murakkab texnologik jarayon hisoblanib, 3 D seysmorazvedka, izlov-qidiruv quduqlarini burg'ulash va shu bilan bog'liq jarayonlardan iborat. Jumladan, Qashqadaryo, Surxondaryo mintaqalarida chuqurligi 4000-6000 metrdan qazib olinishi lozim bo'lgan gaz konlari mavjud bo'lib, ushbu konlardan qazib olish subsidiya asosida gaz sotayotgan davlat uchun qimmatga tushadi. Bugungi kunda mamlakatimizdagi mavjud konlar davlatga tegishli yoki bitim asosida xorijiy korxonalar yoki qo'shma korxonalar berilgan bo'lib, yangi konni aniqlash va qazib olishga investor jalb qilish uchun jozibadorlikni oshirish vaqti keldi.

Misol uchun «Epsilon» xorijiy korxonasi tomonidan 2019-2021 yillar davomida 214,7 mln.dollarlik moddiy texnik resurslar (burg'ulash quvurlari, gaz quvurlar, kimyoviy reagentlar, agregatlar, burg'ulash va kapital ta'mirlash minoralari) Respublika hududiga olib kirilgan va ushbu aktivlar bo'yicha mol-mulk solig'i hisoblangan. Shu sababdan so'nggi yillarda kuzatilgan gaz tanqisligi va rentabelligi past bo'lgan konlarning ishlab chiqarish jarayoniga jalb qilinishi Davlat tomonidan kafolatlangan tizim yaratilmaganligi sababli investorlarning qiziqishi yo'qolgan edi. Tarmoqda soliq yukini keskin kamaytirish soliq bazasini aniqlashning yangi tartiblarini joriy qilish soliq to'lovchilar tomonidan amalga oshirilgan xarajatlarni chegirish hamda soliq bazasini aniqlash tartibini dunyo amaliyotiga moslashtirish vaqti kelgan. Bu boradagi ishlarni muvofiqlashtirish soliq bazasini aniqlash tartibini dunyo amaliyotiga moslashtirish maqsadida vazirlik idoralardan Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi, Geologiya qo'mitasi, O'zbekneftgaz AJ vakillaridan iborat ishchi guruh Xalqaro valyuta jamg'armasi ekspertlari o'rtasida trening tashkil qilindi. O'tkazilgan trening mashg'ulotlarida bevosita Davlat soliq qo'mitasi xodimi sifatida ishtirok etgan hamda ushbu tarmoqda reformani olib

¹⁰ <https://kun.uz/news/2023/01/25/ozbekneftgaz-aj-tomonidan-2023-yilda-744-ta-geologik-texnik-chora-tadbirlar-amalga-oshirish-hamda-buning-evaziga-328-mlrd-kub-metr-tabiiy-gaz>.

¹¹ O'sha manba

borish lozim ekanligini his qilganmiz. O'rganishlar yakuniga ko'ra, dastlab soliq stavkasini gaz bo'yicha 3 baravarga (30 foizdan 10 foizga), neft bo'yicha 2 baravarga (20 foizdan 10 foizgacha), oltin va mis bo'yicha 30 foizga, uran bo'yicha esa 20 foizga pasaytirish va bu orqali soliq stavkalarini boshqa mamlakatlarda belgilangan stavkalar bilan raqobatlashishi mumkin ekanligi aniqlandi. Bugungi kunga qadar geologiya-qidiruv o'tkazish uchun ajratilgan yer uchastkalari bo'yicha amaliyotda imzoli bonus undirilgan bo'lib, bonusning eng kam miqdori foydali qazilmaning turiga qarab BXMning 50 baravardan boshlab 5000 baravarigacha belgilangan edi.

Misol uchun amaldagi bazaviy hisoblash miqdori bo'yicha hali o'rganilmagan quduq (skvajina) uchun 1,5 mlrd.so'mgacha imzoli bonus har bir litsenziya uchun undirilgan. O'rtacha bir korxonada boshlanmagan ish uchun 15-20 mlrd.so'm atrofida imtiyozli bonus to'lagan. Shuningdek, ushbu yer maydoni korxonaga hali to'liq rasmiylashtirib berilmagan bo'lsa-da yer solig'i undirilgan.

Tasavvur qiling hali ish faoliyatini boshlamagan korxonadan milliardlab soliq va bonus to'lovlari undirilgan. Bu esa o'z navbatida geologiya qidiruv ishlari sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Shu sababdan bugungi kundagi quduqlarimizning aksariyati ta'mir talab bo'lib qolgan desak adashmagan bo'lamiz. Geologiya qidiruv ishlari hali yakunlanmagan jarayon hisoblanib, quduq (skvajina)lar aktiv holga kelgandan so'ng daromad keltirishni boshlaydi. Shu sababli geologiya qidiruv ishlari amalga oshirilayotgan yerlar soliq to'lovchilarga vaqtincha ajratiladi va kon tasdiqlangandan so'ng to'laligicha beriladi. Shu sababdan neft-gaz uglevodorod xom ashyosi mavjud yerlar yoki foydali qazilma konlari joylashgan yerlar bo'yicha yer islohotlarini davom ettirish maqsadga muvofiq.

2-jadval

Neft va gaz kondensatini qayta ishlash natijasida olinishi mumkin bo'lgan tayyor mahsulotlar ro'yxati¹²

Tayyor mahsulot nomi	Neft xomashyosi (100 foizdan)	Gaz kondensati (100 foizdan)
Avtobenzin Ai 80	21	51
Avtobenzin Ai 91, Ai 92, Ai 92	1,5	4,4
Avtobenzin Ai 95	1,0	3,6
Dizel yoqilg'isi	21	23
Aviakerosin	11	11
Mazut	7	4

Neft mahsulotlari bo'yicha qayta ishlash natijasida olingan tayyor mahsulotlarni realizatsiya qilish bahosidan kelib chiqib, soliq bazasini aniqlash bo'yicha joriy qilingan tizimning avvalgi tizimdan farqli jihatlarini ko'rib chiqamiz.

Ushbu tarmoq korxonalari 2021-yilda soliq bazasini quyidagi tartibda aniqlagan:

- neft xomashyosi to'g'ridan-to'g'ri realizatsiya qilinsa soliq bazasi o'rtacha sotish bahosidan kelib chiqib;

- mustaqil ravishda qayta ishlansa va (yoki) qaytarish sharti bilan qayta ishlashga berilsa soliq bazasi mahsulotlarni qazib olish tannarxini 20 foizga oshirgan holda aniqlagan.

Misol uchun: 1 tonna neft qayta ishlansa 0,21 tonna AI 80, 0,21 tonna Dizel yoqilg'i, 0,11 tonna kerosin va boshqa mahsulot olingan va soliq bazasi neftning o'rtacha 2 000 000 so'mlik tannarxini 20 foizga oshirib, 2 400 000 so'mdan 20 foiz stavkada 480 000 so'm soliq to'langan. 2022 yildan joriy qilingan yangi tartibga ko'ra:

- neft xomashyosi to'g'ridan-to'g'ri realizatsiya qilinsa soliq bazasi o'rtacha sotish bahosidan kelib chiqib aniqlanadi.

- mustaqil ravishda qayta ishlansa va (yoki) qaytarish sharti bilan qayta ishlashga berilsa,

¹² O'zbekneftgaz AJning ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

neftdan olingan tayyor mahsulotlarni (Benzin Ai 80, Ai 92, Ai 95, dizel yoqilg'isi, kerosin, mazut, bitum va boshqalar) realizatsiya qilish bahosidan kelib chiqib, ularga soliq to'lovchi tomonidan sarflangan qayta ishlash va transportda tashish xarajatlari chegirib tashlangan holda aniqlanadi.

Qimmatbaho, rangli metallar bo'yicha dunyo bozori ma'lumotlarida birja narxi London qimmatli metallar bozori uyushmasining (London Bullion Market Association) ertalabki fiksingi asosida, boshqa metallar bo'yicha esa London metallar birjasining (London Metal Exchange) ma'lumotlari asosida aniqlanadi. Mazkur tajribadan kelib chiqqan holda neft brendi bo'yicha dunyodagi yagona birja narxini qo'llash maqsadiga muvofiqligi o'rganib chiqilganda dunyo mamlakatlarida neft brendining turli hil reytinglari yuritilishi ma'lum bo'ldi.

Xususan, AQSh Alyaska neft brendi "ANS", Meksika neft brendi "WTI", Kanada neft brendi "Synsrude", Arab davlatlari neft brendi "Arab Heavy", Rossiya neft brendi "ESU-Urals" nomlari ostida yuritilib, ularning sifatlari va narxlari bir biridan keskin farq qiladi. Shu sababdan, neft bo'yicha jahonda yagona narx siyosati yuritilmasdan, uning tarkibidagi oltingugurt va neftning ulushiga qarab tabaqalashtirilgan. Xususan, mamlakatimizda qazib olinadigan neft dunyo bozorida "ESU-Urals" neft brendiga yaqin hisoblanadi. Ushbu neft brendi tarkibi bo'yicha qisqacha tushuncha beradigan bo'lsak, Urals - eksport moyi aralashmasining rus markasi hisoblanadi va transneft quvurlari tizimida Urals va Volga markasini yuqori oltingugurtli neft ajratib olish uchun qo'shimcha komponentlar yordamida qayta ishlash orqali olinadi.

So'ngi vaqtlarda kuzatilayotgan energiya tanqisligi, mavjud zaxiralar hajmining kamayishi va yangi konlarda izlov qidiruv ishlarini amalga oshirish jarayonini rag'batlantirilmaganligi sohaning inqiroz yoqasiga kelib qolishiga sabab bo'lgan. Shu munosabat bilan yangi neft gaz konlari bo'yicha soliq bazasini aniqlash tartibini takomillashtirish, soliq stavkalarini pasaytirish hamda yangi konlar to'liq ish holatiga kelgandan so'ng (dastlabki ikki yil davomida) vaqtinchalik soliq imtiyozlarini joriy qilish, soliq bazasini aniqlashda soliq to'lovchilar tomonidan amalga oshirilgan qayta ishlash va tashish xarajatlarini chegirishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Xulosa va takliflar.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 10-sentyabrdagi 720-son qaroriga asosan Kon-geologiya faoliyatini nazorat qilish inspeksiyasiga Soliq qo'mitasi bilan birgalikda yer qa'ridan foydalanuvchilar tomonidan haqiqatda qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilmalar hajmining marksheyderlik xulosasiga muvofiqligi yuzasidan monitoring o'tkazish huquqi berilgan. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 7-yanvardagi 1-son qaroriga asosan soliq organlari tomonidan yer qa'ridan foydalanuvchilar haqiqatda qazib olgan (ajratib olgan) foydali qazilmalar hajmini tekshirish uchun Kon-geologiya faoliyatini nazorat qilish hududiy inspeksiyalarining mutaxassislarini jalb qilish yiliga ikki martadan ko'p bo'lmagan holda amalga oshirilishi mumkin. "Davlat xaridlari to'g'rida"gi Qonunning 71-moddasiga asosan faqat O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha tovarning (ishning, xizmatning) davlat xaridi amalga oshirilishi mumkin. 2023-yilda 836 ta holatda 6 mln. metr kub noqonuniy qazilma hajmi aniqlanib 17,3 mlrd. so'm miqdorida qo'shimcha soliq hisoblangan. 2024 yilning 1-yarim yilligida 123 ta holatda 848,7 ming metr kub noqonuniy qazilma hajmi aniqlanib 2,8 mlrd. so'm miqdorida qo'shimcha soliq hisoblangan.

Bugungi kunda jami 743 nafar marksheyderlar mavjud bo'lib, shundan 47 nafari (6 foiz) davlat idoralarida, 696 nafari (94 foiz) xususiy tashkilotlarda (ularning o'rtacha marksheyderlik xizmat haqi 8 mln so'm) faoliyat yuritadi. Davlat idoralaridagi marksheyderlarning soni cheklanganligi hamda yer qa'ridan foydalanuvchilar haqiqatda qazib olgan (ajratib olgan) foydali qazilmalar hajmini tekshirish uchun Kon-geologiya faoliyatini nazorat qilish inspeksiyalarining mutaxassislarini yiliga ikki martadan ko'p bo'lmagan holda jalb qilish belgilanganligi sababli yer qa'ridan noqonuniy foydalanish holatlarida soliq nazorati

tadbirlarini o'z vaqtida o'tkazish imkoniyati mavjud emas. Soliq organlariga marksheyderlik xizmatlarini ko'rsatuvchi tashkilotlar bilan to'g'ridan-to'g'ri shartnoma tuzgan holda mutaxassislarni jalb qilish huquqini berish. Bunda marksheyderlik xizmatini ko'rsatuvchi tashkilotlarga o'lchov ishlari yakuni bo'yicha qo'shimcha undirilgan yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq summasining 10 foizi, biroq mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining o'n baravaridan ko'p bo'lmagan miqdorda haq to'lash lozim bo'ladi.

Adabiyotlar/Literatura/Reference:

Qonun (2021) O'zbekiston Respublikasining «2022 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 30.12.2021 yildagi O'RQ-742-son.

Базаров Х.М. (2021) “Мамлакатимизда инвестицияларни жалб қилиш ва ер қаъридан фойдаланувчиларга солиқ солиш тартибини такомиллаштириш йўллари” Иқтисодиёт ва инновациялар технологиялар илмий электрон журнал. №6-сон. Ноябрь-декабрь.

Блошенко Татьяна Алексеевна (2019). Методология налогообложения организаций при добыче и комплексной переработке минерального сырья. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук. –Москва.

Бобылев Ю ва бошқалар (2015). Нефть, бюджет и налоговый маневр* RUSSIAN ECONOMIC DEVELOPMENT VOLUME 22 № 11 NOVEMBER–DECEMBER.

Ибрахим Мустафа Али Ибрахим (2020). Развитие налогообложения добычи углеводородного сырья в труднодоступных российских месторождениях в условиях волатильности цен на нефть. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. –Москва.

Ильичева Мария Александровна (2017). Правовое регулирование налоговых отношений с участием крупнейших налогоплательщиков (на примере предприятий нефтегазовой отрасли). Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. Москва.

Камалнев Тимур Шамильевич (2009). Налоговое администрирование крупнейших налогоплательщиков. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидат экономических наук. Москва.

Қонун (2022) Ўзбекистон Республикасининг “2023 йил учун Ўзбекистон Республикасининг Давлат бюджети тўғрисида”ги Қонуни, 30.12.2022 йил ЎРҚ-813-сон.

Туманова Е.Ю. (2017) Правовые основы недропользования. Учебное пособие. Ставрополь. 6 стр.

Федоров Андрей Николаевич (2010). Налоговое администрирование и стимулирование инвестиционной активности крупнейших налогоплательщиков. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидат экономических наук. Нижний Новгород.